

## YOSHLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI TARBIYALASH MUAMMOSINING O'RGANILISHI

Urazova Nafisa Gulimmatovna  
Urganch davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

*Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda yoshlarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashga davlat tomonidan alohida e'tibor berilayotganligi, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash muammosining o'r ganilishi yoritib berilgari.*

*Kalit so'zlar: kitobxonlik madaniyati, pedagog, shaxs, nazariy - metologik asos, shakl, usul, kutubxona, darsdan tashqari mashg'ulotlar, ta'lim salohiyati, maxsus ish shakllari, mustaqil faoliyat, ijodiy qiziqish, faollashdirish, shart-sharoit, yaxlit tizim.*

## ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ БИБЛИОТЕЧНОЙ КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ

Уразова Нафиса Гулимматовна  
докторант 2 ступени Ургенчского государственного университета.

*Аннотация: В данной статье освещено, что сегодня воспитанию читательской культуры молодежи уделяется особое внимание со стороны государства, исследуется проблема воспитания читательской культуры у молодежи.*

*Ключевые слова: культура чтения, педагог, личность, теоретико - методологическая основа, форма, метод, библиотека, внеурочная деятельность, воспитательный потенциал, особые формы работы, самостоятельная деятельность, творческий интерес, активизация, условия, целостная система.*

## STUDY OF THE PROBLEM OF EDUCATION OF LIBRARY CULTURE IN YOUTH

Urazova Nafisa Gulimmatovna  
doctoral student of the 2nd stage of Urgench State University

*Annotation: This article highlights that today special attention is paid to the education of the reading culture of young people by the state, and the problem of educating the reading culture among young people is being investigated.*

*Keywords: reading culture, teacher, personality, theoretical and methodological basis, form, method, library, extracurricular activities, educational potential, special forms of work, independent activity, creative interest, activation, conditions, holistic system.*

Kirish. Ma'lumki, insoniyat barcha madaniy-tarixiy kechinmalarni kitoblarni mutolaa qilish natijasida o'zlashtirib oladi. Buning uchun yoshlar aqliy va hissiy jihatdan faol bo'lishlari kerak. Aqliy-hissiy faoliyat natijasida yoshlar kitoblarda ifodalangan madaniy boylik va bilimlarni o'zlashtirishga intiladilar. Darhaqiqat, badiiy adabiyot ma'naviy-axloqiy tarbiya, estetik zavq va aqliy faoliyat manbai bo'lib, til o'r ganishda ham muhim vositadir.

Hozirgi kunda respublikamizda kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruv tizimini joriy etish kabi aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati darajasidagi vazifalarning belgilanishi sohada sezilarli o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2017 - yil 12 - yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" gi farmoyishi[1], 2017 - yil 13 - sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi va 2018 - yil 12 - maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'r ganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlарини tashkil etish to'g'risida"[2] gi qarorlari asosida mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi jamiyatda kitobga bo'lgan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarishiga zamin yaratmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pedagogika fani oldida yoshlarning kitobxonlik faoliyatini faollashtirish uchun shart-sharoitlarning yaxlit tizimini yaratish, xususan, shaxsning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish vazifalari turibdi. Pedagogika sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarimiz tomonidan bu mavzu hamma zamonlardagi singari hozirgi globallashuv sharoitida ham yanada dolzarblik kasb etmoqda. Kitob va kitobxonlikka oid tadqiqotlar ko‘plab amalga oshirilmoqda. O‘zbek olimlaridan bu sohada D.S.Safarova, S.Matchonov E.Yo‘ldoshev, A.Qoldibekova, B.Xo‘jayev, D.Muminovalarning o‘quv qo‘llanmalari, metodik qo‘llanmalari va maqolalari nashr qilingan.

MDH davlatlarida bu borada L.A.Mosunova, G.I.Shukina, A.V.Avdiyeva, M.V.Molkova, Sa.G.Filatova, N.F.Stanislavchik, A.Yu.Xanxatova, L.G.Moiseeva, N.A.Kustova, I.A.Gertsen, F.I.Setina kabi olimlarning ishlarini keltirib o‘tish mumkin.

Mamlakatimizda bolalar kitobxonligi, shaxsni axloqiy-estetik rivojlantirish mustaqil o‘qishga o’rgatish va komilinson tarbiyasida mutolaaning o‘rni A.Abdulazizov, A.Abdullayev, M.A.Asqarova, B.I.Ganiyeva, D.A.Ganiyeva, E.Yo‘ldoshev, S.I.Kambarova, S.Matjonov, D.A.Mo’manova, M.M.Nigmatova, O.A.Turaqulova, A.O.Umarov, S.A.Chiniyeva, G’.Shirinov, Yo.Qayumxo‘jayeva, M.Quronovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlarda kitobxonlikka oid tadqiqotlar V.Ya.Askarova, S.M.Bondarenko, V.A.Borodina, S.M.Borodin, I.A.Butenko, L.S.Vigotskiy T.G.Galaktionova, N.I.Gendina, G.G.Granik, Z.A.Grisenko, N.E.Dobrinina, V.T.Yegorov, N.I.Kovalevskaya, V.A.Levin, Yu.Melenteva, S.N.Plotnikov, R.P.Potopova, N.N.Svetlovska, N.N.Smetannikova, L.Stepanova, V.A.Suxomlinskiy, I.I.Tixomirova, D.M.Xafizovlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Xorijiy davlatlar pedagog va psixolog olimlari: M.Banaka, Dj.Dunn, L.J.Dorn, M.Halliday, J.Holden, P.Kaczmarek, Mortimer J.Adler, Moyer E.Jessica, A.Perrin, C.Soffos, Yu.Nakamura izlanishlarida kitob o‘qish va kitobxonlikning aksiologik jihatlari, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini oshirish jarayonining tarkibiy qismlari va muhim yo‘nalishlari tadqiq etilganligi qayd qilingan[6].

Ilmiy ishlarida yoshlarning idrokini o‘rganish nazariy va amaliy jihatdan olib boriladi. Bu ko‘p jihatdan turli yo‘nalishlarda olib borilayotgan muammoni ilmiy-nazariy ko‘rib chiqishning murakkabligi va ko‘p qirrali ekanligi bilan izohlanadi:

- yoshlar tomonidan adabiyotni idrok etishning yosh bosqichlari (V.G. Marantsman[5], T. D. Polozova[8]);

- idrok va tahvilning nisbati, asarlarni idrok etish xususiyatlariga qarab tahlil qilish usullari va ularni tanlash (T.G. Brage, V.G. Marantsman, M.P. Barxota);

- turli adabiy nashrlarning asarlarini idrok etish xususiyatlari (Z.Ya. Rez, V.G. Marantsman, T.S. Zepalova);

- adabiyotni ta’lim jarayoni sifatida qabul qilish (T. D. Polozova, E. R. Levin, E. V. Perevoznaya);
- idrokning yoshga nisbatan o‘zgarishlari.

Kitobxonlik madaniyati tushunchasini talqin qilishda ko‘plab yondashuvlar mavjud. «Kitobxon madaniyati» tushunchasining birinchi ta’riflaridan biri N.N.Svetlovska[10] ishida yoritilgan. «Kitobxon madaniyati» atamasida muallif “bilim, ko‘nikma va malakalarning yagona tizimi kitobga qaratilgan, kitobxonni ajratib turadigan ehtiyojlar va qarashlar, mavjud bo‘lgan narsalar bilan bog‘liq kitobxonlik doirasi va mustaqil faoliyatda ifodalanadi”, degan xulosaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kitobxonlik madaniyati – bu shaxsning shaxsga aylanishiga hissa qo‘sadigan ma’naviy ehtiyojlar bilan shartlangan shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlari. Shunday qilib, kitobxonlik madaniyati, shu jumladan, inson madaniyati, shaxsiy fazilatlari (ayniqsa ma’naviy), jamiyat, yosh xususiyatlari, inson intilishlari, birinchi navbatda, o‘qishga prinsipial va jiddiy munosabatni nazarda tutadi, chunki haqiqiy o‘qish, xoh qog‘oz bo‘lsin, xoh elektron kitob, odamni o‘zgartiradi.“Inson yaxlitdir, u ijtimoiy munosabatlarning boyligini, aloqalarini, madaniyatning butun mavjud darajasini o‘zida mujassam etadi.

Jamiyatning barcha ehtiyojlar, manfaatlari va maqsadlari ularning mustaqil hayotida yashamaydi va faoliyat yuritmaydi, ular bilvosita har bir shaxsning ehtiyojlar, manfaatlari va maqsadlarida ifodalanadi. Shunday qilib, inson o‘z ichida butun bir ijtimoiy kosmosni olib yuradi”, deb yozadi faylasuf V.Barulin[3].

Kutubxonachilar uchun kitobxonlik madaniyati tushunchasi kutubxona qoidalari va kitobxonning kitob bilan muomala qilish axloqining asosiy talablaridan iborat – kitob sahifalarini egmang, ularga eslatma qo‘ymang, kitobdan sahfalarni yirtib tashlamang, o‘z vaqtida o‘qigan kitobingizni topshiring,

o‘qish zalida o‘qish paytida shovqin qilmang kabi eslatmalar bilan faoliyat olib borishlari muhimdir. Bu ham kitobxonlik madaniyatiga amal qilish qoidalaridir.

O‘qituvchilar kitobxonlik madaniyatini insonning umumiyligi madaniyatining ajralmas qismi sifatida tushunadilar, bu kitob bilan ishlash ko‘nikmalari to‘plami, shu jumladan, mavzuni ongli tanlash, tizimli va izchil o‘qish, shuningdek, adabiyotlarni to‘g‘ri tanlash qobiliyatidir[4].

O‘qish lug‘atida kitobxonlik madaniyati: «Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy va madaniy rivojlanishining ma‘lum bir bosqichiga muvofiq o‘quvchi ijtimoiylashuvi sohasidagi shaxs va jamiyatning yutuqlari to‘plami» deb ta’riflanadi»[9].

Ko‘pgina kitobshunos olimlar va faylasuflar zamonaviy jamiyatda kitobxonlik madaniyati axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblashadi va «kitobxonlik madaniyati» atamasining ilmiy muomaladan chiqib ketishiga yo‘l qo‘yilmasligiga e’tibor berishadi[11].

Pedagogik - psixologik kontekstda kitobxonlik madaniyati hodisasi tashqi madaniyat va insonning ichki dunyosi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik sifatida qaraladi va bu uning tarbiyasi, o‘tmish tajribasi, dunyoqarashiga bog‘liq bo‘ladi. Kitobxon o‘zi mavjud bo‘lgan va faoliyat ko‘rsatadigan dunyo bilan chambarchas bog‘liq. Kitobxonlik madaniyatining rivojlanish darajasi gumanitar madaniyat elementlari tizimlari prizmasi orqali ko‘rib chiqiladi va baholanadi, ular orasida nutq madaniyati, fikrlash darajasi, estetik did va hissii intellektni ajratib ko‘rsatish mumkin.

E.V.Otkidach[7] talabalarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida «kitobxonlik madaniyati» atamasini mutaxassis universitet tizimi bilan uzlusiz ta’lim va uni zamonaviy axborot majmuasi bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqib, madaniyatining muhim qismi sifatida taqdim etadi. Muallif quyidagi xulosaga keldi: kitobxon madaniyati kumulyativ xarakteristikasi sifatida qaraladi, ya’ni o‘z-o‘zini tarbiyalash qadriyatları va usullarining dinamik tizimi o‘zlashtirish, translyatsiya qilish va yaratishga qaratilgan faoliyat insoniy qadriyatlar (oqilona kitobxonlik, tezkor yo‘nalish jami axborot resurslari, optimal nisbat kasb etadi. E.V.Otkidach kitobxonlik madaniyatining asosiy komponentlarini ta’kidlaydi:

- motivatsion,
- kognitiv
- operatsion.

Motivatsion komponent - o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘plam sifatida belgilanadi va axborot ehtiyojlari, axborot qobiliyati namoyon bo‘lishi uchun o‘z ishlarini mustaqil ravishda tashkil qilishdir.

Kitobxon madaniyatining kognitiv komponenti - olingen bilimlarning miqdori va sifati bo‘yicha tavsiflanadi, bunda mustaqil ravishda an‘anaviy va axborot qidiruv manbalaridan erkin foydalanib, zamonaviy media va interaktiv vositalar yordamida oqilona ishlash, mustaqil ishni tashkil etishdir.

Operatsion komponent - kitobxon madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ta’lim jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari, ilmiy yoki kasbiy faoliyatda kitob bilan ishlash tizimi ko‘nikmalaridir. Ushbu talqinni hisobga olgan holda, kitobxon madaniyatida uning faoliyat yo‘nalishini ta’kidlash muhimdir.

Kitobxon madaniyatida o‘z-o‘zini tarbiyalash harakatlarining qanchalik yuqori, yanada mukammal darajada bo‘lishi talaba shaxsini rivojlantirishga qaratiladi. Biroq, kitobxon madaniyati faoliyat komponentlari jihatli bilan cheklanmaydi, bu ma‘naviy, baholovchi va kognitiv qadriyat hisoblanadi.

Kitobxon madaniyati shaxsning umumiyligi madaniyatining qismlaridan biridir, insonning muhim kuchlarini rivojlantirish va amalga oshirish darajasini tavsiflash, uning madaniy salohiyatni yegallashdagi qobiliyatları va iste’dodlari an‘anaviy va innovatsion asoslangan yozma matnlarning axborot texnologiyalari va samaradorligini aniqlash zamonaviy axborot shaxsning ijtimoiy-madaniy hamkorlik atrof-muhit.

Xulosa. Biz tadqiqot ishimiz maqsadidan kelib chiqqan holda bo‘lajak tarbiyachi- pedagoglarni fanlarni o‘rganish va darsdan tashqari mustaqil ta’lim jarayonida ilmiy va badiiy asarlarni faol ijodiy idrok etishlarini shakllantirib, ularning o‘qish faolligini oshirishga, adabiy va ijodiy faoliyatga jalb qilishga, ularga ongli ravishda o‘qish va adabiy asarlarni yetarli darajada idrok etish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ijodiy vazifalar tizimini ishlab chiqdik. Idrok va tahliliy faoliyatga murojaat qilib, ularning asosiy tarkibiy qismlari – ilmiy va adabiy asarni idrok etish va tahlil qilish – fanlarni o‘zlashtirishda ham, mustaqil o‘qishda ham bir-birini to‘ldiruvchi tarkibiy qismlar ekanligini aniqladik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini

rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi (2017-yil 13-sentabr)Qarori \Lex.uz\docs\3338600.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlарини tashkil etish to'g'risida Toshkent sh.,2018-yil 12-may,PQ-3721-sonhttps://lex.uz/docs/-4887792

3. Барулин В. С. Основы социально-философской антропологии. — М.: Академкнига, 2002. — 455 с. //www.livelib.ru /author/8886-vladimir-barulin

4. Гринева М.И. Ўқув жараёнида ўспиринларнинг ўқиш маданиятини ривожлантиришнинг ташкилий ва педагогик шартлари. дисс.... Педагогика фанлари номзоди, - Санкт-Петербург, 2015. – б. 234.

5. Маранцман В. Г. «Предназначение» литературы в школе. Цели и структура курса литературы в школе / Маранцман В. Г. // Методика обучения литературе. ХХI век: учебное пособие / ООО «ВВМ». – Санкт-Петербург, 2019. – С. 8-18.

6. Mirxoliqu Ch.X. “O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari” dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent.2022-y, 7-bet

7. Откидач, Елена Валентиновна. Развитие читательской культуры студентов в условиях университетского комплекса тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.01, кандидат педагогических наук .2011 год.

8. Полозова Т.Д. О власти искусства слова и ценности чтения. Год издания: 2010 Язык: Русский 320 стр. //www.livelib.ru/book/ 1000562774-o-vlasti-iskusstva-slova-i-tsennosti-chteniya-polozova-td

9. Примаковский А.Р. Ўқиш маданияти тўғрисида: ақлий меҳнатни илмий ташкил этиш нуқтаи назаридан китоб билан мустақил ишлаш усувлари. - М.: Книга, 2001. - б. 158;

10. Светловская, Н.Н.ХХI век. Итоги и перспективы исследования проблемы формирования ребенка-читателя [Текст] : монографический очерк. - Москва : Экон-информ, 2014. - 88 с.; 21 см.; ISBN 978-5-9506-1170-4

11. Смородинская М.Д. Ўқувчиларни ривожлантиришнинг ёш босқичининг хусусиятлари ва уларни кутубхоналар амалиётида кўриб чиқиш. дисс.... Педагогика фанлари номзоди, Л. 1982, - б. 25.